

FARG‘ONA VODIYSI HAMDA MINGTEPA SHAHRI TARIXI HAQIDA

Rahmonova Parizod Ravshanbek qizi

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti

e-mail: parizodkomilova200@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola qadimiy Mingtepa hamda Farg‘ona vodiysi arxeologik qazishmalarining o‘ziga xosliklarini ochib beradi. Bu ishda qadimiy Mingtepa shaxri xarobalari tahlil qilindi. Ushbu maqola kalit so‘zlar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovani o‘z ichiga oladi.

Kalit so‘zlar: Mingtepa, Dovon davlati, Supa, Sanchqich, Sandal, Dalvarzin, Sho‘rabashot, Eylaton, Janodil, Ikulturagenez.

ОБ ИСТОРИИ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ И ГОРОДА МИНГТЕПА

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются особенности археологических исследований в Ферганской долине и древнем городе Мингтепа. В статье анализируется разрушение древнего города Мингтепа. Данная квалификационная работа состоит из ключевых слов, списка литературы и приложения.

Ключевые слова: Мингтепа, Дован Стэйт, Супа, Санчкич, Сандал, Далварзин, Шурабашот, Эйлатон, Джанодил, Икультурогенез.

ABOUT THE HISTORY OF FERGANA VALLEY AND MINGTEPA CITY

ANNOTATION

This article deals with peculiarities of archeological exploration of Fergana Valley and ancient Mingtepa city. Destructions of the ancient Mingtepa city were analyzed in the paper. That qualification paper consists of key words, list of used literature and an appendix.

Keywords: Mingtepa, Dovon Country, Supa(, Sanchqich, Sandal, Dalvarzin, Sho‘rabashot, Eylaton, Janodil, Ikulturagenez

Barchamizga hamda tarixchilar va arxeologlarga ma'lumki, Qadimgi Farg‘ona – jahon sivilizatsiyasining muhim markazlaridan biri deb ta’rif beriladi. Qadimgi Farg‘ona, Baqtriya, Sug‘d, Xorazm kabi Turon zaminning yirik tarixiy - ma’daniy o‘choqlaridan biri hisoblanib, umumbashariyat ma’daniyatiga qo‘sghan munosib hissasi tufayli “Farg‘ona sivilizatsiyasi” degan nom ostida jahon tarixiga kirgan. Vodiy hududida ayniqsa, uning sharqiy qismida ya’ni Qora daryoning yuqori va o‘rta oqimlarida ilk dehqonchilik va dastlabki shaharsozlik makonlari ko‘plab qayd etilgan va arxeologlar tomonidan yaxshi o‘rganilgan. So‘nggi tarixiy va arxeologik manbalarda ma'lum bo‘lishicha Qadimgi Dovon davlati miloddan avvalgi IV- va eramizning V-asrlarida hukm surgan o‘z davrining qudratli davlatlaridan biri edi. Bu davlat haqida undagi xalqlar hayoti, turmush tarzi, urf odatlari haqida juda kam ma'lumotlar saqlanib qolgan. Bu haqdagi ilk ma'lumotlar asosan Xitoy tarixiy manbalarida aks ettirilgan.

Elchi va sayyoh Chjan Szyan miloddan avvaldi 138-126-yillarda birinchi bor, miloddan avvalgi 114-yilda ikkinchi bor O‘rta Osiyoga uyushtirilgan sayohatga boshchilik qilgan. Uning sayohatlari natijasida Turkiston tarixinining qadimgi davrlari, uning xalqi va xo‘jaligi, turmush tarzi va urf-odatlari xaqida, ayniqsa qadmgi Qang‘, Farg‘ona Dovon va Dahya davlalari to‘g‘risida Xitoy yozma manbalarida bizgacha qiziqarli va qimmatli ma'lumotlar yetib kelgan.

V-VIII-asrlar me'morchiligi O'rta Osiyo shaharsozligidagi umumiy jarayonlar asosida mahalliy xususiyatlardan keib chiqqan holda rivojiana borgan. Arxeologlar Andijon viloyatidagi Mingtepani tarixiy Ershiy bilan qiyoslaydilar. Bu yodgorlik tarkibiy jihatdan ichki (o'rta shaxar) va tashqi shaxarlardan iborat bo'lib, ark qoldiqlari ichki shaxarda joylashgan va uni markaziy qismi saqlangan holos. Xitoy manbalari xabar bergen Ershiy- "o'rta shaxri" qoldiqlari faqat Mingtepada saqlangan(maydoni 40 hektardan ziyod). "O'rta shaxar" ikki qator kuchli mudofaa devorlari bilan o'ralgan, ular arxeologik jihatdan qayd etilgan. Ichki shaxarning mudofaa inshootlari to'liq saqlangan.

Mingtepa arxeologik yodgorligi Andijon viloyatining sharqiy qismida joylashgan bo'lib, Andijon shahri markazidan 38km uzoqlikda hozirgi Marhamat tumanining markazida joylashgan. Dovon davlatining markazi ya'ni bosh shahri bo'lган qadimgi Dovon davlati tarixi haqida ilk ma'lumotlar xitoy tilidagi manbalardan ma'lumot olishimiz mumkin.¹⁰ Buyuk Ipak yo'lida joylashgan bu mahobatli shahar o'zining hunarmandchiligi, dehqonchiligi, samoviy tulporlari bilan dunyoga mashhur bo'lган.

Qadimgi Dovon davlatining poytaxti bo'lmish Mingtepa shaxri tarixini o'rganishga qiziqish bugungi kunga kelib tobora kuchayib bormoqda. Mingtepa haqidagi turli ma'lumotlarni ommaga yetkazish uchun tarixiy ma'lumotlarni to'plash eng muhim masala hisoblanadi. Buyuk Ipak yo'lida joylashgan Dovon davlatining poytaxti bo'lган Mingtepa arxeologik manzilgohini tarixiy manbalar bilan yanada boyitish zarur.

Farg'ona vodiysining madaniyat yodgorliklari, xususan, Mingtepa madaniyati yodgorliklarining stratigrafik ma'lumotlari xronologiyasi va davrlashtrilishi mummolari bilan bogliq barcha moddiy va manaviy madaniyat materiallaridir.

Xususan, Farg'ona vodiysida joylashgan Andijon shahrini o'rganish XX-asrning o'rtalaridan boshlangan. Dastlab, A.K. Pisarchik, so'ngra V.I. Kozenkova, B.Abdulgazieva hamda F.Dadaboevlar arxeologik qazuv ishlarini amalga oshirdilar.

¹⁰ Матбабаев Б.Х., Абдуллаев Б.М Оборонительные сооружения древней Ферганы. Ташкент, "EXTREMUM PRESS". 2011 й., 68 бет.

Bulardan tashqari, sharqshunos va qadimshunos olim S.Jalilovning Andijon tarixi bo‘yicha izlanishlari ham diqqatga sazovordir. Dalvarzin, Sho‘rabashot, Eylaton, Mingtepa kabi shaxarlar o‘rta asrlardan ancha oldin paydo bo‘lgan bo‘lib, V-VIII asrlarga kelib ular muhim savdo-iqtisodiy va ma’daniy markazlarga aylangan edilar. Arxeologik materiallarga ko‘ra, vodiyning sharqiy tomonlardagi, aynan Mingtepa, Dalvarzin, Sho‘rabashot, Eylaton kabi shaxarlar biroz ertaroq paydo bo‘ladi. Vodiydagi shaxarlarning ba’zilari tarixiy shaxarlar sifatida hozirgacha faoliyat ko‘rsatmoqdalar. Bular Andijon, Quva, O‘sh, O‘zgan kabilar. Quvadan boshqa barcha shahar xarobalarida qadimiylar qatlamlar qalin keyingi (hozirgacha) davrlar qoldiqlari ostida qolgan va ularning birortasida ham hozirgi Eski shahar qismi alohida yodgorlik holatida yetib kelgan emas. Bu shaharlardagi ilk o‘rta asr ma’daniy qatlamlari unchalik qalin emas va yaxsh saqlanmagan. Albatta, bu vodiydagi yer tanqisligi va aholining zinch joylashganligi bilan izohlanadi. Ayrimlari esa shahar sifatida ilk o‘rta asrlar oxiri va o‘rta asrlarda yo‘q bolib ketgan bular Eski Qo‘rg‘ontepa, Qo‘rg‘oshintepa, Janodil, Sho‘rabashot, Qo‘rg‘ontepa(Buzilmas) kabilar bizlarga shahar xarobasi sifatida yetib kelgan.

Andijon viloyatida ochilgan Mingtepa arxeologik yodgorliklarini zamonaviy ilmiy asoslarda xaritalashtirish. Andijon viloyatining o‘zida turizm uchun xizmat qila oladigan 170dan ortiq maskanlar mavjud. Ular sarasiga 100dan ziyoratgoh, 30dan oshiq shifobaxsh buloqlar, o‘nlab tarixiy va zamonaviy maskanlar bor. Ular orasida Mingtepa arxeologik yodgorligi boy tarixga egadir. Mingtepa madaniyatining mustaqil madaniyat sifadida o‘ziga hoslik jihatlarini rivojlanish bosqichlari va xronologiyasini aholi xo‘jalik yumushlari ma’naviy kechinmalarini aniqlashtirish, ikulturagenez masalalarini aniqlanadi. O‘zbekiston hududida joylashgan qadimgi Farg‘ona vodiysi urbanizatsiya jarayonlari davrida jamoalar moddiy madaniyati tizimida tutgan o‘rnini ilmiy asoslaydi.

Qazishmalarda moddiy ma’daniyat namunalari ko‘plab topiladi(kulolchilik, temirchilik, tosh taroshlik, to‘qimachilik namunalari). Mingtepadan topib o‘rganilgan ashyoviy topilmalar asosan ziroatchilik va hunarmandchilik bilan shug‘ullanib kelgan

qabilalarga tegishli bo‘lgan. Demak Mingtepa shahar xarobasida olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari Qadimgi Farg‘onanaing Dovon davlatidagi shaharsozlik ma’daniyatini gullab yashnaganidan darak beradi. Ikkinci qurilish davrida (miloddan avvalgi II-I-asrlar) qadimgi devorni ya’nada mustahkamlash uchun qo‘srimcha devor va to‘g‘ri to‘rtburchakli kuzatuv minoralari bunyod etiladi.

1952-yildagi ma’lumotga asosan g‘arbiy va sharqiy devorda 20 tadan, janubda 6 ta, shimolda 12 ta kuzatuv minoralari, (burjlari) saqlanib bizgacha yetib kelgan. 2011-yili samodan olingan sur’atlar tahlil etilganda Mingtepa ichki shaxrini rejasi to‘g‘ri to‘rtburchakli emas, balki parallelogramma ko‘rinishidagi ekanligi ayon bo‘ldi. Bu narsa Mingtepa rejasiga emas, balki uni o‘rganish bilan bog‘liq muammolarga ham o‘zgartishi kiritishi shubhasiz. Chunki u ko‘plab belgilariga ko‘ra ilk temir davrining eng yirik yodgorligi Eylaton qadimgi shaxri rejasi bilan o‘xshashlik tomonlari ko‘zga tashlanadi. Bu narsa Mingtepani davriy jihatdan bir oz qadimgi davrga qadimiylashishi mumkinligi uchun yangi dalil bo‘ladi. Chunki har 2 shaxar bir davrda bunyod etilgan bo‘lishi mumkin. 2015-2016-yillari ikkinchi tashqi devor o‘rami to‘rt tomondan 500 hektar maydon Xitoy maxsus asbobi Tan chan (Sanchqich) yordamida o‘rganib chiqildi. Natijada Mingtepa tashqi mudofaa devorlari qoldiqlari qayd etildi. Ko‘hna shaharning ikkinchi tashqi mudofaa devori himoyalangan hududni 300 hektardan ziyod ekanligini aniqladi.

Bugung kunda dunyoda axborot vositalari ichida electron axborot vositalari ma’lumotlari axborot uzatishning eng tez va maqbul yo‘li hisoblanmoqda. Shuningdek, tarixiy ma’lumotlarni ham aynan internet ma’lumotlari orqali bilib olish mumkin. Aynan, qadimiy Dovon davlati hududiga kirgan hozirgi kunda qo‘shti davlat hududida joylashgan maskanlar haqida ham ma’lumotlar bor. Chunki, Dovon davlatiga 70 ta katta kichik shaharlar kirgan bo‘lib, Xitoy manbalarida ham bu shaxarlardan bir nechta tilga olinadi. Jumladan, Xitoy tarixchisi Sima Szyanning “Tarixiy xotiralar” kitobida ta’riflangan Yuchen shaxri hozirgi Qirg‘iziston Respublikasi O‘zgan shaxri hududiga to‘g‘ri keladi. Shuning uchun ham Dovon davlati tarixini nafaqat o‘zbek olimlari, balki, ko‘plab chet ellik olimlar jumladan, Qirg‘iziston tarixchilari ham

o‘rganib kelmoqdalar. Shuningchun Dovon davlati to‘g‘risida internet ma’lumotlarini aynan yozilgan tilda ya’ni o‘zbek yoki rus tilida havola qilinadi.

Xitoy va O‘zbekiston arxeologlari guruhi Farg‘ona vodiysida joylashgan qadimiy Mingtepa Shaxridagi qazuv ishlari chog‘ida muhim kashfiyot qilishdi. Bu haqida Xitoy ijtimoiy akademiyasiga tayanib, Sinxua agentligi habar bermoqda.

Ikki mamlakat areologlari 2012-yildan buyon mazkur qadimiy shaxarda besh marta qazuv ishlarini amalga oshirishdi. Qazuv natijalaridan ma’lum bo‘lishicha, bundan 2000 yil avval Mingtepa nafaqat askarlar qo‘rg‘oni, balki Fargo‘na vodiysidagi eng yirik qal’a-shaxar bo‘lgan.

Qazuv ishlari vaqtida, shuningdek ustaxona xarobalari, ichki shaxarning g‘arbiy darvozasi qoldiqlari va tashqi shaxar sharqiy devori yonidan qabriston topilgan.

Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati

1. Abdullaev B.M. Qadimiy Farg‘ona davlatchiligiga doir ayrim fikrlar.
2. Abdullaev B.M. Mingtepa shaxri ma’daniyatiga bir nazar.
3. Бернштам А.Н. Араванские наскальные изображение и Даванская (Ферганская) столица Эрши // СЭ. 1948. №4 с.155-161
4. Матбабаев Б.Х., Абдуллаев Б.М Оборонительные сооружения древней Ферганы. Ташкент, “EXTREMUM PRESS”. 2011 й., 68 бет.
5. Ma’lumotlar www.ru.wikipedia.org/wiki/ЧжанЦянь